

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PEDAGOGIK QARASHLARI

Shahnoza Shovkatova Sirojiddin qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi

2-kurs magistranti

@shovkatova0810@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma‘rifatparvar, jadidchi, publisist, adib, pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilm yo‘lida qilingan ishlari, matonati, jasorati, mehnatlari, turli shaharlardagi safarlari, teatrga asos solinganligi, “Padarkush” drammasi, yangi usul maktablari, yangi tartibdagi darsliklari, pedagog sifatida xalq bolalarini bilimli qilish yo‘lidagi harakatlari, mashaqqatlari, ta‘limiy-tarbiyaviy pedagogik g‘oyalari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, pedagog, publisist, tetr, ma‘naviyat, madaniyat, ma‘rifatparvar, drama, nashriyot, yangi usul, darsliklar, maktab, kitoblar tarjimasini.

Mamlakatimiz dunyo tamadduni va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, aziz-avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. Ma‘naviyatimizning ildizlari bo‘lgan buyuk mutafakkurlarimiz hayoti, ijodini va ular ijodidagi hozirgi yoshlarimizning ma‘naviy - axloqiy tarbiyasiga ta‘sir etadigan qarashlarini keng ommaga targ‘ib qilish ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma‘lumki Sharq zaminida azaldan dunyo ahlini ilmi bo‘lishga da‘vat etgan buyuk zotlar yashab ijod etgan. Shunday oqilu fozil kishilardan biri Samarqand farzandi Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Behbudiy 1875-yilda Samarqand shahari yaqinidagi Baxshiteppa qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning avlodi ota tomondan Ahmad Yassaviyga borib tutashsa, ona tomondan Urganj xo‘jalariga borib taqalardi. Behbudiy qisqa umri davomida insonlarni ilm, bilim, kasbu hunar egallashga, qolaversa til o‘rganishga da‘vat etib, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otmoq uchun umrining oxirigacha kurashib kelgan. Bugungi kun yoshlari Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi ulug‘larimizni bilishlari, ular ash‘oru osorini o‘rganishi shartdir.

Turkiston xalqining mashaqqatli mehnat qilishiga qaramasdan, qashshoq bo‘lib yashab kelayotganligining ildizlarini ochishga harakat qilgan ma‘rifatparvarlardan biri ham Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. U XX asr boshlaridagi ijtimoiy muhitni tahlil qilib, xalqning qashshoqlikda yashashining asosiy sababi - bu mustamlakachilik siyosati deb hisoblaydi.

U Yassaviy avlodidan 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, mufti darajasiga ko‘tariladi. Behbudiy haj safarida bo‘lgan chog‘ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899–1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid)

ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903–1904), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi.¹

Jadidlarning asarlarida faqat din, til emas balki axloqiy masalalar ham o'z ifodasini topgan. Ular axloqiy masalalarni hal qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini teran anglaganlar. Xususan, mahalliy aholi turmushidagi ba'zi urf-odat va an'analarning mohiyatini tahlil qilib, ularga axloqiy nuqtai nazardan baho berganlar. Ayniqsa, jadidlarning to'y-ma'rakalar va dafn marosimlari haqidagi qarashlari ayni kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Behbudiyning ta'kidlashicha, to'y va azadagi har qanday dabdababozlik va manmanlik kishilarni xonavayron va g'arib etuvchi, inqirozga sabab bo'luvchi dushmandir.

Darhaqiqat, to'ylardagi dabdababozlik ayrim hollarda ichkilikning meyoridan ortiq iste'mol qilinishi ta'zivalardagi isrofgarchilik, islom diniga zid bo'lgan mavrid – ma'rakalar o'sha davrlardagina emas, hozir ham juda muhim.

Behbudiyning nuqtai nazaricha, Turkiston boylari xalqni harob va barbod etadigan dabdabali to'ylarni o'tkazish bilan ovora. Behbudiy to'ylarni kamxarajat, bejirim o'tkazish tarafdori bo'lib, unga sarflanishi mumkin bo'lgan ortiqcha pullardan bolalarni Kavkaz, Qrim, Qozon, Orenburgga o'qishga yuborish uchun foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Behbudiyning ijodi va amaliy faoliyati keng qamrovli va serqirra bo'lib, u maktab-maorifni isloh qilishdan tortib, Turkistonni ozod Vatanga aylantirish masalasiga borib taqaladi. Jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik asoslari, ularda milliy g'oya masalalari, jadid matbuotining shakllanishi, jadid adabiyoti va san'ati, jadid maktabi va maorifi, axloqiy va estetik tarbiya masalalari tarixiy, filologik, falsafiy, pedagogik jihatlari o'rganildi. Behbudiyning deyarli barcha maqola va asarlari nashr etilib, xalqqa taqdim etildi. Yangi usul maktabi, milliy matbuot, adabiyot va teatr tarixini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar maydonga keldi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari shakllanishi uning musulmon kishisi, Turkiston farzandi sifatidagi o'z xalqi turmushidan qayg'usi bilan bog'lanib ketadi. Bir tomondan mo'min musulmon sifatida har bir farzandni yuksak musulmonchilik axloqi bilan tarbiyalash tarafdori bo'lsa, yana bir jihat o'lkaning o'zgalarga qaramligi uning bosh qayg'usi bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bu qayg'u esa farzandlarni zamonaviy ilm-fanni egallash orqali vatanni ilm yo'li bilan ozod qilish lozimligini uqtiradi. "Zamona ilmu hunaridan bebahra xalq o'zgalarga poymol bo'ladi", uning bunday xulosasi uning har bir maqolasi, darsligi va u yaratgan

¹ Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009 yil, 9-son.

birinchi proza asari "Padarkush"da qizil ipdek ko'zga tashlanib turadi. "Padarkush" personajlarining bu qadar tubanlikka ketish sabablari ham ularning axloqsizligi, ilmsizligi edi. Turkiston shaharlarida ochilib kelayotgan pivoxonalar va ba'zi axloqsizlik o'chog'i bo'lgan mayxonalarning ko'payib ketayotganligi uni tom ma'noda qayg'uga soladi. Ba'zi boylarning bunday joylar uchun o'z mulklaridan joy berayotganligi kechirib bo'lmas xato edi. Aziz farzandlar uchun bir maktab qurmoq uchun joy so'raganda, o'zlarini chetga oluvchilarni qattiq tanqid ostiga oladi. Hazrat Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari mazmuni, uning farzandlarni ilm-ma'rifat bilan qurollantirish orqali yuksak insoniy axloqqa erishish mumkinligini bilan belgilanadi.

M.Behbudiyning pedagogik g'oyalari, jamiyatni taraqqiy ettirish uchun kadrlar tayyorlashning zarurligi to'g'risidagi qarashlari, uning «Padarkush» asaridagi ziyoli obrazi orqali ifodalanadi. Ziyoli o'zining ilm-fan, texnika, madaniyat, davlat, jamiyat ishlari haqidagi fikr- mulohazalarini aniq, lo'nda, ilmiy, ishonarli dalillar orqali tushuntirishga, isbotlashga harakat qiladi. Xususan, ziyolidagi bu xususiyatlar uning boy bilan bo'lgan munozarasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z zamonasi yoshlarining bilimli, madaniyatli va siyosiy faol bo'lishlari uchun ilg'or g'oyalari bilan birga amaliy faoliyatda ko'rsatib berganligi bilan ham ahamiyatlidir. U o'z amaliy faoliyatida aqliy tarbiyaning hayotda, ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etishini, yosh avlodni qobiliyatli, yaxshi turmush egasi qilib kamol toptirishda asosiy manba bo'lishini anglaganlar. Mutafakkir o'sha davr maktablari uchun "Muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy"(Qisqacha umumiy jo'g'rofiya), "Kitob ul-atfol"(Bolalar uchun kitob), "Muxtasari tarixi Islom"(Islomning qisqacha tarixi), "Madxali jo'g'rofiyai imroniy", "Muxtasati jo'g'rofiyai Rusiy"(Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi) darsliklarini yaratib, millatni savodli qilishga, murg'ak qalbda millat qayg'usi, millat iftixorini uyg'otishga oz bo'lsada hissa qo'shishiga ishongan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'ziga xos siyosiy qarashga ega bo'lib, u o'z zamonasining yoshlarini siyosiy ongli va siyosiy bilimli shaxslar sifatida voyaga yetkazishni orzu qilgandi. Professor Begali Qosimov(1952-2005) to'g'ri ta'kidlaganidek, u "XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi" sifatida yoshlarni siyosiy tarbiyalash masalasida muhim fikrlarga ega edi, biroq uning siyosiy tarbiya to'g'risidagi qarashlari o'rganilgan emas. Behbudiy bundan yuz yil muqaddam o'z davriga nisbatan ilg'or fikrli ravishda yoshlarni siyosiy tarbiyalashning quyidagi ikki muhim omilini ta'kidlab ko'rsatadi:

Mavjud siyosiy partiyalarning g'oyalari bilan tanishtirish;

Mavjud siyosiy tuzumning mazmunini anglatish. Biz bu yondashuvni "Jadid pedagogikasi" fanining siyosiy tarbiya masalasiga oid kontsepsiyasi sifatida qabul qilamiz va uning bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmaganligini eslatib o'tmoqchimiz. Behbudiy birinchi masala to'g'risida 1906-yilda yozilgan "Xayrul

umuri avsatuho” (Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidur) maqolasida so‘z yuritadi. Unga ko‘ra, “butun dunyoda atfol(yoshlar) firqalar(siyosiy partiyalar) g‘oyalari asosida tarbiya etilur; jumladan, Rusiyada to‘rt firqa mavjud turur:

- Mustabid firqasi(Hukumat partiyasi);
- Mashrutai avlomiya(Kadetlar partiyasi);
- Ishtirokiyuni ommaviya(Sotsial-demokratlar partiyasi);
- Rusiya musulmonlari ittifoqi (partiyasi)”

Ma‘rifatparvar pedagog tushuntirib o‘tadi. Chunonchi, Mustabid firqasi (Hukumat partiyasi) “Rusiya podshohligini saqlash”, Mashrutai avomiya firqasi (Kadetlar partiyasi) “hokimiyatni fuqarolar ishtirokida boshqarish”, Ishtirokiyuni ommaviya firqasi (Sotsial-demokratlar, keyinchalik kommunistlar partiyasi) “ishchilar ustuvorligi” va Rusiya musulmonlari ittifoqi (partiyasi) esa, “chin e‘tiqodlik” siyosiy g‘oyalari asoslanadi. Behbudiy bu siyosiy partiyalarning g‘oyalari tasvirlab o‘tar ekan, 1906-yildayoq keyinchalik KPSS nomini olgan partiya to‘g‘risida, “bu toifaga qo‘shilmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlidir” deb ogohlantiradi. Chunki donishmand Behbudiy bu partiyaning XX asr tong otaridayoq zo‘ravonlik, qatag‘on va o‘zidan boshqa hech kimni tan olmaslik kabi siyosiy g‘oyalarni ko‘ra olgan edi. Ma‘lum bo‘ladiki, Behbudiy yoshlar siyosiy tarbiyasida siyosiy plyuralizm g‘oyasiga asoslanishni tavsiya qiladi. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning g‘oyalari esga keladi.²

Mahmudxoja Behbudiy Turkiston jadidlari otasi, jadidchilikning yana bir yorqin vakilidir. Jadidshunos Begali Qosimovning ta‘kidlashicha: "Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkiston orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol qatnashgan yirik namoyondasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nashriyotchisi va amalyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi." Behbudiy yangicha ta‘lim tarbiyani afzalliklarini isbotlashda ko‘proq o‘zi erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi tartiblarga tayanadi. Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi- maktab, barcha ilmlarning boshi-maktab, saodatning, fozil insonning ma‘naviy chashmasi- maktab degan aqidaga qat‘iy amal qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy uchun milliy g‘oya-millatni taraqqiyotga olib chiqish g‘oyasi edi. Bugunda ma‘rifatparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma‘naviy ma‘rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongini yuksaltirish yo‘lida xizmat

² Ahrorova Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pdegogik qarashlari va ma‘rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997. 157

qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatpar jadidlarning nomlari tiklanib, tavvallud kunlari tantanali nishonlandi, ularning pok nomi oqlandi, asarlari qayta-qayta chop etildi. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy qadriyatlar sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytsak, Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifiy-axloqiy qarashlaridan bugungi yoshlar tarbiyasi masalalarida foydalanish ham bugungi globallashuv jarayonlarida milliy ong va milliy dunyoqarashni o'zligicha saqlash garovi ekanligini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahrorova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning pdegogik qarashlari va ma'rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997. 157
2. Ахророва, З. Б. (2019). Алишер Навоии ижоди воситасида баркамол авлодни тарбиялаш. Современное образование (Узбекистан), (3 (76)), 49-53.
3. Ахророва, З. Б. (2023). Мадмудхужа бедбудийнинг маънавийахло^ий тарбияга оид ^арашлари. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 201-206.
4. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009 yil, 9-son.
5. Хамрокулова, Ш. Э. (2021). Узбек маърифатпарвари Абдурауф Фитрат асарларида экологик тарбия масалалари. Science and Education, 2(11), 1116-1119.